


YOSHLAR TIMSOLIDA AMIR TEMUR SIYOMSI



G'oyimov Umar Eshmurodovich

Shahrisabz davlat pedagogika institute

“Boshlang'ich ta'lif” kafedrasi o'qituvchisi.

Shodmonova Ruxsora Odil qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institute

“Boshlang'ich ta'lif” yo'nalishi talabasi.

Anotatsiya: Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temurning hayotiy faoliyati va madaniy-me'moriy, ilmiy-ma'naviy merosi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Jalon svilizatsiyasi, istiqbol, yoshlар ongiga singdirish, jahon tarixi, uyg'onish davri, jahon hamjamiyati, ma'rifat homiysi, ma'naviyat egasi, xamsanavis, milliy o'zlikni anglash.

Dunyoning turli mamlakatlarida taniqli davlat va jamoat arboblari, olimlar va adiblar o'z ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va ijodiy faoliyati davomida buyuk ajdodlarimiz, xususan, Sohibqiron Amir Temurning jahon svilizatsiyasi va madaniyati rivojiga qo'shgan munosib ulushini yuksak e'tirof etib keladi. Haqiqatan ham buyuk sarkarda Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab-yashnagan mamlakat barpo etgan davlat arbobi sifatidagina mavqe tutmaydi albatta. U davlat va jamiyat boshqaruvidaadolat o'rnatish va el-yurt manfaatlari yo'lida butun borlig'ini, hattoki, o'z jonini ham beradigan hukmdor hamda davlat arbobi qatoriga kiruvchi buyuk shaxsdir. Buni biz birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning so'zlagan nutqlarida ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu nutqda: "Tarixda hukmdorlar ko'p o'tgan, ularning aksariyati o'z maishati va ayshu-ishratidan nariga o'tmaganligi ma'lum. Ularni bugun birov eslamaydi ham. Biroq, millat g'amida yongan, uning istiqboli va istiqloli yo'lida fidokorlik ko'rsatib yashagan arbobni kelajak va tarix hech qachon unutmaydi. Amir Temur ana shunday unutilmas va tarixiy shaxsdir" deb ta'kidlaganlar. Yuqoridagilardan bilishimiz mumkinki, buyuk Sohibqiron Amir Temurning faoliyati va u qoldirgan ma'naviy va madaniy merosiga bo'lgan qiziqish nafaqat Sharq mamalakatlarida balki, G'arb mamalakatlari hamda jahoning rivojlangan davlatlarida, ham kuchli bo'lgan. Bugungi kunda AQSH, Angliya, Germaniya, Fransiya kabi jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topgan davlatlarda "Temuriylar davri tarixi va san'ati tadqiqot Assotsiatsiyasi" faoliyat yuritayotgani hamda Sohibqironning jang san'ati mumtoz ilm sifatida o'qitilib kelinayotgani so'zimizning dalilidir. Amir Temur davlatining poytaxti bo'lmish Samarqand shahrini yer yuzining madaniy-me'moriy va ilmiy-ma'naviy

markazlaridan biriga aylantirgan. U qoldirgan bir qancha tarixiy qadamjolar hozirgi kunga kelib, biz ozod va obod yurda yashayotganimizdan dalolat beradi. Sohibqiron kamolga yetgan yurda yashayotganimizdan faxrlansak arziydi. Buyuk ajdodimizning eng muhim fazilatlaridan biri shuki, u zot bundan VI asr avval davlatlararo manfaatli hukmronlikni yanada rivojlantirish, uzoq va yaqin xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlash o'z saltanatining yorqin istiqbolini ta'minlashning muhim omili ekanligini teran anglangan. Shu bois, Yevropa va Osiyoni bog'lashga xizmat qiladigan ulkan ishlarni amalga oshirgan. Bir tomondan-Xitoy, Hindiston, ikkinchi tomondanesa Fransiya, Ispaniya, Angliya va boshqa davlatlar bilan ham ijtimoiy-siyosiyaloqlarni o'rnatgan va shu munosabatlarni mustahkamlashga intilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda parlamentga yo'llagan Murojaatnomasida "Buyuk alloma va adiblarimizning jasoratini yoshlар ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixon tuyg'ularini yanada kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak" deya ta'kidlagan edilar. Hozirgi kunda yoshlар ongida Amir Temurni ongli, ma'naviy tushunish har biryosh avlodning asosiy vazifasi bo'lmoq'l lozim. Sohibqiron Amir Temur jahon tarixida chuqur iz qoldirgan shaxs sifatida tanildi. Hattoki butun jahon Amir Temurning mahotaridan hayratda qoldi. Sohibqiron kamdan kam buyuk shaxslar hayotida uchrovchi ma'naviy-axloqiy, vatanparvar xislatlarga ega inson bo'lgan. Biz buni buyuk xamsanavis Alisher Navoiyning "Temur Qo'ragan...agarchi nazm etmoqqa iltifot qilmaydurlar ammo nazm va nasrni ondoq xo'b mahal va mavqyeida o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qig'oniming yaxshi bayt aytqonicha bor". Shundan ko'rinish turibdiki, Sohibqiron Amir Temur davlat ishlari bilan mashg'ul bo'libgina qolmasdan, biz yosh avlod uchun ilmiy-ma'naviy meros ham qoldirgani bitmas- tunganmas boylik hisoblanadi. Yuqoridagilardan bilishimiz mumkinki, buyuk ajdodlarimiz, xususan, ma'rifat homiysi, yuksak ma'naviyat egasi, markazlashtirilgan davlat arbobi bobomiz Sohibqiron Temurning bizga qoldirgan merosi Vatanimizni rivojlangan mamlakatlar safiga qo'shishimizda katta vosita vazifasini o'taydi. Nafaqat O'zbekistondagi, balki 250'rta Osiyodagi tarixiy obidalar, go'zal maskanlarining ko'pchiligi Amir Temur davrida vujudga kelgan. Ushbu tarixiy qadamjolar hozirgi kunda ko'pgina rivojlangan davlatlarning e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Temuriylar davri har sohada chinakam uyg'onish davri bo'ldi. Amir Temurning ma'naviy jasorati va amal qilgan hayotiy me'zonlari bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan Yangi O'zbekiston taraqqiyotida, kundalik ishlarmizda, davlatimiz salohiyatini yanada oshirish, xalq farovonligi yuksaltirish sari bosayotgan qadamlarimizda har doimdagidan-da yuqoriqoq daraja namoyon bo'laveradi. Biz Yangi O'zbekiston yoshlarining asosiy vazifasi ajdodlarimizning ma'naviy merosini chuqur anglamoq va Yurt rivoji uchun undan to'g'ri foydalanmog'imiz lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M.Mirziyoyev, "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz" T. Ma'naviyat 2016.
2. Sh.M.Mirziyoyev, "Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz" T. ma'naviyat 20183. I.A.Karimov, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". T. Sharq 1998.
3. M.Ivanin, "Chingizxon va Amir Temur" .T. Ma'naviyat 2017.5. H.J.Sodiqov, "Amir Temur hayotidagi g'aroyibotlar". T. Ma'naviyat 2016